MARKAZIY OSIYODA “BAG‘RIKENGLIK SIYOSATI”NI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI

Maftuna Rajabova

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

o‘qituvchisi, s.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Ushbu tezisda Markaziy Osiyoda “bag‘rikenglik siyosati”ni rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, mintaqadagi integratsion jarayonlarga alohida urg’u beriladi.

Kalit so’zlar: *tolerantlik, geosiyosiy noaniqlik, integratsiya, pragmatik, Markaziy Osiyo.*

Abstract. This thesis analyzes the development of the “policy of tolerance” in Central Asia. Special attention is also paid to integration processes in the region.

Keywords: *tolerance, geopolitical uncertainty, integration, pragmatism, Central Asia.*

Bugungi zamonaviy globallashuv davrida madaniy xilma-xillikning ortishi, global migratsiya jarayonlarining jadallashuvi hamda turli identitetlarning o’zaro to’qnashuvi tolerantlik (bag‘rikenglik) tamoyiliga bo’lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Bag‘rikenglik tamoyili bugungi zamonaviy jamiyatning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tolerantlik nafaqat shaxslararo munosabatlarni barqarorlashtirish, balki, siyosiy va huquqiy tizimlarning samarali yo’lga qo’yilishida ham muhim omildir. Hozirgi kunda xalqaro maydonda yuz berayotgan turli xil geosiyosiy, etnik va milliy nizolarning asl sabablaridan biri sifatida davlatlar o’rtasida tolerantlik omilining yemirilib borayotganligini ko’rsatib o’tish lozim.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Bugungi kunda xalqaro munosabatlar tizimida ishonchsizlik muhiti shakllanmoqda. Shunday sharoitda biz o’zaro hurmat, ishonch va hamkorlik tamoyillariga tayanib, milliy

manfaatlarimizni himoya qilishimiz zarur”[1], – deya ta’kidlashi xalqaro munosabatlar tizimida tolerantlik siyosatini yanada kuchaytirishga bo’lgan ehtiyojning ortib borayotganligidan dalolat beradi.

Ma’lumki, “mintaqaviy integratsiya tushunchasi” xalqaro munosabatlar fanida muhim o’ringa ega. Xususan, neofunksionalizm tarafdorlari (E. Haas) mintaqaviy integratsiyani funksional hamkorlik orqali chuqurlashadigan jarayon sifatida talqin qiladi[2]. Liberal institutsionalizm yondashuvi esa xalqaro institutlar orqali hamkorlikni mustahkamlashga urg’u beradi.

Hozirgi kunda zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida Markaziy Osiyo mintaqasining strategik ahamiyati yanada kuchayib bormoqda. Mintaqa davlatlari o’rtasidagi siyosiy ishonchning ortishi va ochiq hamda pragmatik tashqi siyosat yuritilishi integratsion jarayonlarning jadallashuviga olib kelmoqda. Ayniqsa, 2016-yildan keyingi davrda mintaqaviy hamkorlik sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarildi desak mubolag’a bo’lmaydi.

Markaziy Osiyo davlatlari o’rtasida siyosiy integratsiya jarayonlari o’zaro ishonch va hamkorlikning ortishi, muntazam maslahatlashuvlar va diplomatik aloqalarning faollashuvi orqali namoyon bo’lmoqda. Prezidentlar uchrashuvlari mintaqaviy siyosatni muvofiqlashtirishda muhim platformaga aylandi. Mazkur jarayon xavfsizlikni ta’minlash va turli xil nizolar hamda global tahdidlarni oldini olishda muhim omil hisoblanadi.

Iqtisodiy integratsiya mintaqa davlatlari o’rtasidagi savdo hajmining ortishi, investitsiya oqimlarining kengayishi va qo’shma loyihalarning ko’payishi bilan izohlanadi. Jumladan, transport-logistika infratuzilmasining rivojlanishi (temir yo’l, avtomobil yo’llari, energetika loyihalari) iqtisodiy integratsiyani yanada chuqurlashishiga xizmat qilmoqda. Madaniy va gumanitar sohalarda hamkorlik esa integratsiyaning eng muhim yo’nalishlaridan biridir. Ta’lim almashinuvi, qo’shma

ilmiy tadqiqotlar, madaniy festival va forumlar xalqlar o'rtasidagi o'zaro tushunishni mustahkamlaydi.

Shu bilan bir qatorda, Markaziy Osiyoda integratsion jarayonlarning rivojlanishi bilan bog'liq quyidagi muammolar ham mavjud:

- iqtisodiy integratsiyani yanada kuchaytirish uchun mintaqada umumiy bozor tizimining mavjud emasligi (asosan, tovarlar va xizmatlar bozori bilan bog'liq muammolar);
- transchegaraviy suv resurslari bilan bog'liq masalalar hamda suv-energetika, ekologik muammolar;
- Markaziy Osiyoning transport salohiyati bilan bog'liq masalalar;
- turli xil zamonaviy tahdidlarga (jumladan, kiber xavfsizlik, axborot urushlari) qarshi yetarlicha strategiyalarning mavjud emasligi;
- mintaqada integratsiyani rivojlantirish uchun iqtisodiy va intelektual resurslarning yetarli emasligi;
- global kuchlarning mintaqaga bosimi va ularga qarshi strategiyalarning ishlab chiqilmaganligi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda olib borilayotgan tashqi siyosatni izohlar ekan professor A.Fayzullayev undagi asosiy uch vektorga urg'u beradi. Birinchi vektor – mintaqaviy vektor bo'lib, O'zbekiston o'z qo'shnilariga ko'proq e'tibor bera boshladi, bu juda to'g'ri va "fundamental muhim" masaladir. Ikkinchi vektor – hamkorlikning ko'p tomonlama shakli. Uning fikriga ko'ra, dunyoda ikki tomonlama darajada hal qilinmaydigan ko'plab muammolar mavjud. Bu atrof-muhit, terrorizm, xalqaro savdo rejimi va boshqalar bilan bog'liq muammolar. Bunda esa yaqin xalqaro hamkorlik talab etiladi. Yangilanayotgan tashqi siyosatning uchunchi vektori – O'zbekiston manfaatlariga javob beradigan vazifalarning aniq bayon etilishi, xalqaro darajada "yanada ishonchli" harakat qilish qobilyatidir[3].

Siyosatshunos Sanjar Saidov mazkur g'oyani rivojlantirgan holda, unga qo'shimcha sifatida yana bitta vektor (to'rtinchi vektor) – "mas'ulyatli yetakchi" vektorini ham qo'shish mumkinligini ta'kidlaydi. O'zbekiston so'ngi yillarda jahon hamjamiyatida nafaqat milliy manfaatlarni, balki Markaziy Osiyoning umumiy mintaqaviy manfaatlarini ifodalovchisi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu, avvalo, O'zbekistonning mintaqaning energiya manbalaridan oqilona foydalanish, Orol dengizi bilan bog'liq ekologik fojia, Afg'onistonda tinchlik va osoyishtalikni o'rnatish kabi ko'plab xalqaro tashabbuslarida o'z aksini topmoqda[4].

Keyingi paytda Markaziy Osiyoda kechayotgan geosiyosiy va geoiqtisodiy jarayonlarda mintaqaviy hamkorlik va siyosiy integratsiyaga intilish tendensiyalari kuzatilmoqda. Ushbu integratsiya, eng avvalo, ijtimoiy ishonch va bag'rikenglikka asoslangan aloqalar tizimiga tayanadi. Bu integratsiya faqatgina hukumatlar darajasida bo'lib qolmasdan, o'zida madaniy, ma'rifiy, diniy, intellektual va boshqa salohiyatlarni qamrab olgan fuqarolik jamiyati asosida ham kechishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasida, avvalo, dunyo tajribasini diqqat bilan o'rganish, tahlil qilish va ijobiy yutuqlaridan foydalanish zarur. Bu borada keng jamoatchilik fikriga tayangan holda qabul qilingan mintaqaviy hamkorlik va siyosiy tolerantlikka qaratilgan umumiy strategiya va uni amaliy tatbiq qilish borasida "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Jahonda kechayotgan murakkab geosiyosiy jarayonlar, xavfsizlikka tahdid va global iqtisodiy inqiroz sharoitida Markaziy Osiyo davlatlari ochiq va pragmatik tashqi siyosat olib borishi, xalqaro maydondagi qat'iy say-harakatlar natijasida nafaqat milliy, balki butun mintaqamizning nufuzi va obro'-e'tiborini oshirish talab etiladi. Eng muhim jihati, Markaziy Osiyo davlatlarining xalqaro darajada individual emas, balki jamoaviy shaklda ishtirokini ta'minlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Shu ma’noda 2025-yilning 3-4 aprel kunlari davlatimiz rahbari raisligida Samarqand shahrida o’tkazilgan “Kelajakka investitsiyalar” shiori ostida “Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti, mubolag’asiz aytish kerakki, Yangi O’zbekistonning xalqaro munosabatlar tarixida o’ziga xos yangi bir sahifani ochib berdi. Ta’kidlash joizki, ushbu anjuman, eng avvalo, bugungi global davrda mintaqa davlatlarining xalqaro maydonda yirik iqtisodiy va moliyaviy institut sifatida tan olinayotgan Yevropa Ittifoqi bilan qator sohalar bo’yicha o’zaro hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlashiga xizmat qilishi shubhasiz. Shuningdek, Buyuk Ipak yo’li chorrahasida joylashgan qadim Samarqandda bo’lib o’tgan bu tadbir dunyo miqyosida har taraflama ulkan salohiyatga ega bo’lgan ikki mintaqa o’rtasida ham siyosiy, ham iqtisodiy jarayonlarni qamrab oluvchi qudratli ko’prik vazifasini ham o’taydi deb ishonamiz.

Vaholanki, Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, Markaziy Osiyo endi tarixning chetida emas, balki o’z strategik kun tartibini shakllantirayotgan, jadal rivojlanayotgan mintaqaga aylanmoqda. Siyosiy iroda, yuqori darajadagi o’zaro ishonch va qo’shma iqtisodiy tashabbuslar mintaqada barqaror rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Katta o’zgarishlar oldinda kutib turibdi.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish joizki,umumiy ma’noda tolerantlik – bu boshqa shaxsga ham, boshqa madaniy an’anaga ham hurmat bilan munosabatda bo’lishdir. Bundan tashqari, tolerantlik o’zgani o’ziga teng qadriyat sifatida e’tirof etishni, boshqasining mavjudligiga xayrixoh munosabatda bo’lishni va uning fikrini hurmat qilishni, muloqotga tayyorlikni, haqiqatga olib boradigan turli yo’llar mavjudligini tushunishni anglatadi. Tolerantlik insonning boshqa individlar va tizimlar bilan muloqot qilish hamda o’zaro munosabatda bo’lishga ochiqligi sifatida namoyon bo’ladi. Bag‘rikenglikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim.

Bugungi kunda xalqaro maydonda bag‘rikenglik omilini rivojlantirish zarurati ortib bormoqda. Turli mamlakatlar o’rtasidagi munosabatlar ham huddi turli insonlar

o’rtasidagi munosabatlarga o’xshaydi. Zero, insonlar o’zgalarning umuminsoniy huquqlarini tan olib, hurmat qila olsa, ularga nisbatan kechirimli va sabrli bo’la olsagina ular o’rtasida tinchlik, do’stlik, o’zaro ishonch va hamkorlik, bag‘rikenglik kabi ahamiyatga molik fazilatlar shakllanadi. Odamlar o’rtasida o’zaro ishonch va murosaning mavjud emasligi ular orasida turli xil konfliktlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Insonlarning “ishonch”, “murosa”, “bag‘rikenglik”, va “sabr” tushunchalariga bo’lgan munosabati vaziyatlarning ijobiy yoki aksincha salbiy jihatlar bilan yakunlanishini belgilab berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo’yicha kengashining VI sammitidagi nutqi. – Ostona, 2022-yil 13-oktabr.
2. Haas E.B. The Uniting of Europe: political, social, economic forces, 1950-1957. – Stanford: Stanford University Press, 1958. – 552 p.
3. «Мягкая сила», имидж и динамичность: каким становится Узбекистан и его внешняя политика. 27 июня 2017 – URL: https://podrobno.uz/cat/politic/myagkaya-sila-imidzh-i-dinamichnost-kakim-stanovitsya-uzbekistan-i-ego-vneshnyaya-politika-/.
4. Саидов С.Ш. Марказий Осиё фуқаролик жамияти ва минтақавий интеграция муаммолари. –Тошкент: Ilm ziyo zakovat, 2021. –B. 163.